

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

LINGVISTIKA

2024 Vol. 2 (1)

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir:	Hamidulla Dadaboyev
Bosh muharrir o'rinbosari:	Zulxumor Xolmanova
Mas'ul kotib:	Dilafroz Muhammadiyeva

Tahrir hay'ati

Baxtiyor Abdushukurov, Samixon Ashirboyev, Sulton Normamatov, Munavvara Qurbonova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Baxronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmonova, Marhabo Umurzoqova, Manzura Shamsiyeva, Zilola Shukurova, Gavhar Komilova, Kamola Rixsiyeva, Iqbol O'razova, Muhabbat Madaminova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Mushtariy Xolmurodova, Nodir Jo'raqo'ziyev.

Jurnal haqida ma'lumot

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

"Lingvistika" Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" jurnalining tilshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta e'lon qilinadi. "Lingvistika" seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning lingvistika yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

"Lingvistika" seriyasi 2021-yil mart oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:	Hamidulla Dadaboev
Deputy Editor in Chief:	Zulkhumor Kholmanova
Executive secretary:	Dilafruz Muhammadiyeva

Editorial Committee

Bakhtiyor Abdushukurov, Samikhon Ashirbayev, Sultan Normamatov, Munavvara Kurbanova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Bakhronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmanova, Marhabo Umurzakova, Manzura Shamsiyeva, Zilola Shukurova, Gavhar Komilova, Kamola Rikhsiyeva, Iqbol Urazova, Muhabbat Madaminova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Mushtariy Kholmuradova, Nadir Jorakoziyev.

Journal information

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results. The authors' ideas may differ from those of the editors'.

“**Linguistics**” is a linguistic series of the journal “Uzbekistan: Language and Culture” which in the list of scientific publications of the High Attestation Commission, published four times a year. The “Linguistics” series publishes linguistic articles by professors, doctoral students, trainee researchers, independent researchers, and masters.

The “Linguistics” series was launched in March 2021.

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Mundarija

Lingvistika

Shuhrat Hayitov

Bobur asarlarining filologik tadqiqi.....6

Kamola Rixsiyeva

Qa= asosli lingvistik birliklarning semantik to'r asosidagi tahlili19

O'razova Iqbol

Eski o'zbek tilidagi "holat" semali frazemalar tahlili (XIV asrning II yarmi manbalari asosida)28

Mamarajabova Iroda

Eski o'zbek turkiy tildagi vaqt konseptini ifodalovchi leksemalar taraqqiyoti42

Ma'suma Mo'minova

Suv komponentli frazemalarda milliy-madaniy belgilar ifodasi57

Israilova Saodat Turapovna, Dilnoza Jumanova

Diskurs va uning ilmiy talqini67

Zahro Abruyeva

Ijtimoiy muloqotga xos ayrim murojaat shakllarining lingvokognitiv tahlili75

Shaxlo Baxodirova

"O'tgan kunlar" romanidagi lakunar birliklar88

Zarnigor Davronova

Badiiy matnda antroponim va unga yondosh tushunchalarning lingvistik xususiyatlari (Abdulla Qodiriy ijodi asosida)100

Zarifa O'rinova

Aforizmlar – intertekstual birlik sifatida113

Saodat Israilova, Gulnoza Rayhonova

Tezauruslardagi shaxs otlarining paradigmaticasi125

Mirzayeva Go'zal

Dunyo va turk tilshunosligidagi neyrolingvistik tadqiqotlar xususida132

Azizova Nilufar

"Devoni lug'otit turk"dagi "oziq-ovqat" semali leksik birliklarni semantik maydon asosida tadqiq etish142

Content

Linguistics

Shukhrat Khaitov

A philologik study of Babur's works6

Kamola Rixsiyeva

Semantic web-based analysis of qa= based linguistic units19

Iqbol Urazova

Analysis of phrases with the term "state" in the old uzbek language
(Based on the sources of the second half of the 14th century)28

Mamarajabova Iroda

Development of lexemes with the concept of time in the straotürkic
language42

Ma'suma Mo'minova

Expression of national – cultural signs in phrases with a water
component57

Israilova Saodat Turapovna, Jumanova Dilnoza

Discourse and its scientific interpretation67

Zakhro Abrueva

Linguistic-cognitive analysis of social communication forms of
address75

Shaxlo Baxodirova

Lacunar units in the novel "O'tgan kunlar"88

Zarnigor Davronova

Linguistic features of anthroponym and related concepts in literary text
(based on the works of Abdullah Qadiri)100

Zarifa O'rinova

Aphorisms – as an intertextual unit113

Saodat Israilova, Gulnoza Rayhonova

Paradigmatics of personal nouns in thesauruses125

Go'zal Mirzayeva

About neurolinguistic research in world and Turkish linguistics132

Nilufar Azizova

Studying the lexical units of "food" in the "Devoni lugotit turk" based on
the semantic field142

Qa= asosli lingvistik birliklarning semantik to'r asosidagi tahlili

Kamola Rixsiyeva¹

Abstrakt

Jahon va o'zbek tilshunosligida semantika masalalari chuqur o'rganilgan. Tarixiy umumasosli leksemalar semantikasidagi o'zgarishlar lisoniy ong, tafakkur darajasi, idrok nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Semantika dunyo tilshunosligidagi zamonaviy yo'nalish sifatida taraqqiy etar ekan, leksemalar o'rtasidagi aloqadorlik asosida semantik to'rlarni ajratish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Semantikaga oid taqiqotlarda leksemalar tahlili semantik maydon asosida amalga oshirilgan. So'zni semantik maydonlarga ajratishda dastlab "tushuncha maydoni"dan kelib chiqib yondashiladi. Bu yondashuvga ko'ra, har bir so'z bir ma'lum bir "tushunchalar guruhi"ga, ya'ni semantik maydonga kiradi va hech biri oraliq holatida qolmaydi. So'z ma'nosining tarixiy taraqqiyoti o'zgarmas holda tuzilgan maydonning qayta qismlarga bo'linishi sifatida izohlanadi. Demak, so'zning semantik maydonga mansubligi sinxron xarakterga ega bo'lib, davrlar osha o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Maqolada qa= asosli birliklarning semantik to'r asosidagi tahlili, tarixiy taraqqiyotdagi ma'no o'zgarishlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *ma'no, sema, semantika, semantic maydon, semantik to'r, tushuncha, genesis, etimologiya.*

Kirish

Semantikaga oid taqiqotlarda leksemalar tahlili semantik maydon asosida amalga oshirilgan. So'zni semantik maydonlarga ajratishda dastlab "tushuncha maydoni"dan kelib chiqib yondashiladi. Bu yondashuvga ko'ra, har bir so'z bir ma'lum bir "tushunchalar guruhi"ga, ya'ni semantik maydonga kiradi va hech biri oraliq holatida qolmaydi. So'z ma'nosining tarixiy taraqqiyoti o'zgarmas holda tuzilgan maydonning qayta qismlarga bo'linishi sifatida izohlanadi. Demak, so'zning semantik maydonga mansubligi sinxron xarakterga ega bo'lib, davrlar osha o'zgarishlarga uchrashi

¹ Kamola Rixsiyeva – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi, PhD.

E-pochta: krikhsiyeva85@mail.ru

ORCID-ID: 0000-0001-6965-3067.

Iqtibos uchun: Kamola R. Qa= asosli lingvistik birliklarning semantik to'r asosidagi tahlili. *O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika.* 2024-2: 19-27.

mumkin.

Ma'lum semema tarkibida nechta asosiy sema mavjud bo'lsa, ushbu semema har bir semasi asosida turlicha ma'noviy bog'lanishlar hosil qila oladi. Ya'ni, sememaning har bir semasi klassemani vujudga keltira oladi. Bunda semema tarkibidagi semalar shunday semaga ega bo'lgan semantik maydonga oid leksemalar bilan birikish imkoniga ega. (Hakimova 2008, 72).

So'z ma'lum sememasiga ko'ra muayyan semantik maydonlarga birlashadi. Bir semantik maydonga mansub leksemalar sememalari uchun umumiy bo'lgan va ularni birlashtiruvchi sema arxisema; semantik maydonning guruhlar (maydonchalari)ga mansub leksemalar sememalari uchun umumiy bo'lgan va ularni birlashtiruvchi sema integral semadir. Differensial sema semantik maydonga kirgan har bir leksema sememasining o'ziga xos tomonini, xususiyatini belgilaydi (Hakimova 2008, 58). Semantik maydonda so'zlar bir-biri bilan tutashmasligi qayd etiladi. So'z ma'nolarining bir-biriga tutashmasligi nisbiy tushuncha bo'lib, etimologik tahlillar turli maydonga mansub leksemalarning semantik jihatdan bog'lanishi mumkinligini ko'rsatadi. Mazkur aloqadorliklar semantik to'rlarni yuzaga keltiradi. Bu esa semantik maydon tushunchasining semantik to'rlar bilan to'ldirilishini taqozo qiladi.

"Semantik to'r" semantika masalalariga qaratilgan integratsiya asosidagi tahlil metodlaridan biri hisoblanadi. Semantik to'r kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasida faol qo'llanmoqda (Xolmanova 2022, 37-43). Semantik to'r ham hodisani, ham metodni ifodalaydi. Semantik to'rlar dastlab mashina tarjimasida sun'iy intellekt hosil qilish uchun ishlab chiqilgan. Semantik to'rlar dastlab mashina tarjimasida sun'iy intellekt hosil qilish uchun ishlab chiqilgan. Sun'iy intellekt kompyuter texnologiyalari sohasining tarkibiy qismi bo'lib, o'tgan asr oxirlaridan buyon turli sohalarida qo'llanib kelmoqda. Sun'iy intellekt inson kabi o'ylash imkoniyatini namoyon qiladi va muammolarni kompleks holatda hal qilishga yordam beradi. Boshqacha qilib aytganda, sun'iy intellekt bilimlarni tartibga solish uchun inson aql-zakovati xususiyatlarini kompyuterga singdiruvchi sun'iy algoritmdir. Sun'iy intellekt biologiya, psixologiya, mantiq, matematika kabi sohalarida ham qo'llanadi.

"Semantik to'r" tushunchasi 1967-yilda Quillian tomonidan bilimlarni grafik ko'rinishda ifodalash maqsadida taklif qilingan. Semantik to'r bilimlarni tarmoqlangan grafik shaklida ifodalaydi. Har qanday fikr, voqea, vaziyat yoki obyekt kompozitsion tuzilishga ega bo'lib, bu struktura semantik tarzda konseptual uzvlar vositasida

ifodalanadi. Umuman olganda, "tarmoq" tushunchasi mavhum tushunchadir; u kompyuterda dasturlashtirilgan bo'ladi yoki elektron simli ulanishni ifoda etadi. Bundan farqli o'laroq, semantik to'rlar tabiiy tilda tasvirlanishi mumkin bo'lgan har qanday bilimni tizimli ifodalashni maqsad qiladi. Semantik to'r tizimi nafaqat aniq tizimlashgan tarmoq tuzilmasini, balki undan ancha kattaroq tuzilmani, ya'ni konseptual bilimlar majmuasini ham o'z ichiga oladi.

O'rganishlar natijasida ma'lum bo'ldiki, qa= asosidan shakllangan harakat-holat bildiruvchi leksemalar semantikasida, dastavval, "qamrab olmoq", "birikmoq", "qo'shilmoq", "yopishmoq" semalari mavjud bo'lgan. Keyinchalik "ustma-ust qo'yimoq", "yopmoq", "yashirmoq" semalari shakllangan: osmonni bulut qoplashi ("to'laligicha qamrab olish") → qapi (eshik, uy og'zini "yopish") → qopqoq ("idishni yopish").

Asosiy qism

Qa= leksemasidan semantik usul bilan, turkum sinkretizmi asosida qap oti yasalgan. Natijada harakat-holat bildiruvchi leksemadan narsa-buyum nomini bildiruvchi leksema hosil bo'lgan. Buning oqibatida "ichi bo'sh", "berkitish", "o'rash" semalari yuzaga kelgan.

Qa= asosidan shakllangan lug'aviy birliklar muayyan semantik uzvlar orqali o'zaro birlashadi. Leksema semantik tarkibidagi muayyan semalar semantik uzv vazifasini bajaradi. Sema narsa-hodisaning, voqelikning tushunchada aks etgan muhim belgilaridir. "Sema "belgi" ma'nosini ifodalaydi, leksik ma'no (semema)ni tashkil toptiruvchi komponent (qism)larni bildiradi" (Hojiyev 2022, 22).

Qa= asosli qamal, qamoq, qamrov, qoplam, qoplama, qoplovchi, qobiq, qovurg'a, qopqon, qoplon, qamramoq, qamamoq, qoplamoq, qoplanmoq, qopmoq, qoptirmoq, qobon, qopag'on, qopong'ich so'zlarini "qamrash" semantik uzvi birlashtirib turadi. Qadoq, qabariq, qabarmoq, qabarchimoq qappaymoq leksemalar "bo'rtish" semantik uzvlari orqali bog'lanadi. Qaviq, qayish, qavimoq leksemalarida "ustma-ust qo'yish", "biriktirish" semalari semantik uzv vazifasini bajaradi. Qop, qopcha, qopchiq, qopqon, qovuq, qovun, qovoq, qo'lqop, paypoq, qalpoq leksemalarining semantik uzvi "ichi bo'sh" semasidir. Qopi, qopu, qopqa, qopqoq, qopqoqli, qopqoqlamoq leksemalari "yopmoq" semantik uzvi asosida birlashadi. Qamashmoq, qamashtirmoq, qapishmoq, qovushmoq, qovushtirmoq, qovurma leksemalarining semantik uzvi "biriktirmoq" semasi hisoblanadi. Ushbu leksemalarni "qamrash", "birlashish" semantik uzvi asosida ham birlashadi.

Qap= asosidan shakllangan leksemalar semantikasidagi semalar tadrijiy taraqqiyotini quyidagicha ifodalash mumkin:

“qamrab olmoq” → “birikmoq” → “qo‘shilmoq” → “yopishmoq” → “ustma-ust qo‘ymoq” → “yopmoq” → “yashirmoq”.

Hozirda qo‘llanayotgan qa= asosli leksemalar semantikasida qadimgi turkiy til davridagi ma‘nolar saqlanib qolgan. Masalan, qa= asosidagi “mahkam ushlamoq”, “tutmoq” ma‘nosi (DLT, III, 114) “tishlamoq” ma‘nosidagi qopmoq leksemasida saqlangan:

Qa= asosli birliklarning tarixiy semantikasida o‘zgarishlar kuzatiladi. Masalan, qap= leksemasining “g‘ilof”, “jild”, “ona qornida bola o‘ralib turgan parda, xalta” (DLT, III, 80) ma‘nolari hozirgi o‘zbek tilida kuzatilmaydi.

qap asosidagi “ona qornida bola o‘ralib turgan parda, xalta” (DLT, III, 80), “tuxum ichidagi parda” ma‘nosi (QR,47) qobiq (bug‘doyning ustki qismi), o‘t qopi leksemalarida kuzatiladi.

Qa= asosli leksemalar tahlili bu leksemalar strukturgrammatik jihatdan o‘zgarishga uchraganini ko‘rsatadi. Leksemalar tahlili so‘z tarixiy taraqqiyot jarayonida semantik aloqadorlik asosida bir necha yangi leksemalarning shakllanishiga asos bo‘lishini ko‘rsatdi. Tilshunoslikda “bir xil tovush qobig‘i” (zvukovaya obolochka) tushunchasi mavjud. Bir xil fonetik qobiq bir til doirasida kuzatilsa, aksariyat o‘rinlarda semantik aloqadorlik mavjudligini ko‘rish mumkin. Bu aloqadorlik semantik tahlillar orqali, leksemaning komponent analizi orqali aniqlanadi. Quyida biz “berkitmoq” semasi ostida birlashuvchi qa= asosli leksemalarni ko‘rib chiqamiz.

Qop leksemasiga sochiluvchan narsalar solib qo‘yiladigan, mato, chipta va sh.k. dan tikilgan, xaltadan katta, qanordan tikilgan kichik ro‘zg‘or buyumi (O‘TIL 5, 335). Ushbu izohni davom ettirgan holda qopning vazifalarini ajratamiz. Qop, birinchi navbatda, sochilib ketish xavfi mavjud bo‘lgan mahsulotlarni bir joyga jamlab turadi, ikkinchidan, ularning yopiq holda saqlanishini ta‘minlaydi, uchinchidan esa, ichidagi mahsulotni tashqi ta‘sirlardan himoyalaydi, ya‘ni berkitadi. Demak, qopda “berkitish” semasi ustun.

Eshik, darvoza ma‘nosidagi qapi/qopi/qopqa leksemalari ham asosan uy, saroy, qal‘a kabilar devorining ichkari va tashqariga harakatlanish uchun ochiq qoldirilgan qismini yopib, ichkari qismni begonalaridan, dushmanlardan, umuman, tashqi ta‘sirlardan berkitib turadi. Unda ham “berkitmoq” semasi ustunlik qiladi.

Qoplam/qoplama biror narsaning sirtiga, betiga, ustiga qoplangan, o‘ralgan, sirilgan tashqi qatlam yoki g‘ilof. Devorning

marmar qoplamasi. Mebel qoplamasi. Yo'lning asfal't qoplamasi. Tish qoplamalari. Qopla-ma materiallar. Chumchuq tumshug'i bilan simning qoplamasini ketma-ket cho'qib ko'rdi. R. Fayziy, Hazrati inson (O'TIL 5, 334).

Qoplamoq biror narsaning ustini qamramoq, burkamoq, bosmoq yoki Sathini, yuzasini, betini egallamoq. Ko'k yuzini bulut qopladi. Yer yuzini qorong'ilik qopladi. Suv betini muz qopladi. Yoki uning aynan to'smoq, berkitmoq, egallamoq semalari ham mavjud. Misollar: qo'li bilan og'zi-burnini qoplamoq (O'TIL 5, 334).

Qoplamoq leksemasining qopga solmoq ma'nosida ham berkitmoq semasi mavjud.

Qoplanmoq leksemasining narsa-buyum sathini egallash ma'nosida sathning shu narsa bilan "berkitilgani" tushuniladi. Osmon bulut bilan qoplandi. Shu ish-harakatni bajaruvchi qoplovchi shaxs oti ham bu leksemalar qatoriga kiradi. Masalan, *mebel qoplovchilar. Ko'rpa qoplovchi ayol.*

Paxta qoplovchilar. O'g'it qoplovchi ishchi.

Qa= asosli leksemalar "qamramoq", "birlashmoq", "ustma-ust qo'ymoq", "birlashtirmoq", "bekitmoq", "narsa-buyum" ma'nolarini ifoda etadi:

qa= asosli leksemalarda yana bir sema ustunlik qiladi. Bu birgalik, jamlik semasidir. Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi "hamma" birgalik olmoshi mana shu jamlik semasiga ega bo'lgan leksema sanalib, uning tarixiy shakli qamag'/qamug' sanaladi. Bu sema "qa"ning qamrab, o'rab, jamlash turish xususiyatidan kelib chiqadi. Birgalik olmoshlari ot, sifat va son o'rnida kelib, narsa - predmet miqdori, sanog'ini bildirgan. Qadimgi turkiy tilda qamuğ, alqu, barča, bütün, qop "barcha, hamma" kabi birgalik olmoshlari ishlatilgan (Abdushukurov 2019, 50).

qamag'/qamug' – etimologiyasi jihatidan munozarali so'z deb qaraladi. Qadimgi yodgorliklarda uch xil shaklda uchraydi. Shuning uchun uning kelib chiqishi haqida aniq fikr aytishga imkon bermaydi. Masalan, Kul-Tegin bitiktoshida qmy qmyi, ya'ni odatda a yozilmasa ham o'qiladi – qamay: Türk qara qamay budun "barcha turkiy xalqlar" (IE 8, NE 8), qamayi jeti jüz âr boldi "hammasi 700 erkak bo'ldi" (Malov PDP 29-30), qamayi bes otuz süladimiz "jami yigirma besh marta yurish qildik" (KT, 18);

Bilga xoqonda qmy (qamay) (qara qamay bodun "butun lashkar", qamayi bis "jami yigirma besh". Qadimgi uyg'ur: 1) qamayi a) tütüs keris qilmasar sen özürjgâ qamay adatın ozyaj sen "agar siz hech qanday nizo boshlamasangiz, unda siz o'zingizni barcha

xavflardan xalos qilasiz” (TT I); bu jirtincüdâ qamay tinliylar üçün “bu dunyodagi barcha jonzotlar uchun” (KR 47); qamayda erkligijultuz “barcha yulduzlarning eng kuchlisi” (LSK 10577); qamayqa ajayuluq ciltâyülük bolyajlar “ular hamma tomonidan hurmat qilinadi” (Suv 195) (ESTYA 2013, 31-40).

Birgalik, jamlik ma’nosi qop tarixiy shaklining o’zida ham mavjud. Masalan:

To’nyuquq bitiktoshida: Toquz oğuz beglari bodunī bu sabimīn edgüti ešid! Qatigdi tınlā! Ilgärü kün toğsıq (q)a, birgärü kün ortusınaru, qurıgaru kün batsıqıña, yırgaru tün ortusınaru, anta içräki bodun qop maña körür, anča bo(dun) Ya’ni: To’qqiz o’g’uz beklari, xalqi bu so’zlarimni yaxshilab eshit, diqqat qilib, tingla! Oldinga – kunchiqarga, o’ngga – janubga, orqaga – kunbotarga, chapna – shimolgacha bo’lgan yer ichidagi xalq (lar) hammasi menga qaraydi. Shuncha xalqni qop etdim. Ol emti ayıg yoq Türk qağan Ötükän yış olursar, eltä buñ yoq ilgärü Shantun yazıqa tegi sülädim, taluyqa kiçig tegmädim, birgärü Toquz - ersänkä tegi sülädim, Tüpütkä kiçig tegmädim, qurıgaru Yinçü ögüz. Ya’ni: mamnun qildim. U endi yovuz emas, Turk xoqoni O’tukan yishda tursa, elda tashvish yo’q. Shimolga Shantung ko’ligacha qo’shin tortdim, dengizga biroz yetmadim. Janubga To’quz arsangacha qo’shin tortdim, Tuputga biroz yetmadim. G’arbgä Yinchi (Sir) daryoni (ESTYA 2013, 93). Jükünürmen bilge bilig paramit qutiña Qop-i arıy münegüsüz jig öküş tip // Qopdın sınar burqan-lar-qa ögidilmiş Qolulaju ülgülejü bolyu-luy-suz Quruy bige bilig saña jükünürmen (Men hikmat fazilatining buyukligiga (inoyatiga) sajda qilaman, Har narsada sof, beg’ubor, eng yaxshi, mo’l-ko’l (uni) hisobga olib, ulug’langan, o’lchab bo’lmas hikmat-sizga ta’zim qilaman! (Kairjanov 2013, 28).

Yuqoridagi ilmiy manbalardan olingan misollar hamda ma’lumotlardan ko’rinib turibdiki, qopda ham, qamug’da ham jamlik, birgalik, qamrab olinganlik ma’nolari mavjud. Bu qadimgi shakllar hozirda fonetik o’zgarishlarga uchrab, hamma tarzida qo’llanadi. Leksemaning shaklida o’zgarish bo’lgan, ammo uning semantikasi hech qanday o’zgarishga uchramagan, qadimda qanday ma’noda ishlatilgan bo’lsa, hozir ham xuddi shunday ma’noda ishlatiladi.

Semantik to’rlar bugungi kunda kompyuter lingvistikasining faol tahlil usullaridan biri bo’lgan sentiment tahlil metodlari uchun ham asos vazifasini bajaradi.

Semantik to’rlar lisoniy birliklar o’rtasidagi aloqadorlikni tarmoq usulida yoritishda, matnni tushunishda, pragmatik ma’nosini anglatishda, fikr ifodasini aniqlashtirishda o’ziga xos o’rin tutadi

(Xolmanova 2022, 37).

Leksemalar tahlili jarayonida semantik to'r metodini tatbiq etish lug'aviy birliklar o'rtasidagi aloqadorlikni, so'z yasash xususiyatlarini, semantik taraqqiyot belgilarini yoritishda ahamiyatlidir.

Xulosa

Turkiy tillardagi ot-fe'l omonimligiga asoslangan turkum sinkretizmi hodisasi tahlillariga, mavjud lug'atlardagi izohlar asosida qap= leksemasida harakat-holat birlamchi ekanligini ta'kidlash mumkin. Qap/qop ot leksemasi semantik usul asosida shu fe'l asosidan yuzaga kelgan. Borliqda eng ko'p tushuncha harakat-holat va narsa-buyumdur. Dastavval, fe'l asoslardan otlar shakllangan, qap fonetik qobig'iga oid ot leksemalar keyingi jarayonda yuzaga kelgan.

Qa= asosli ot leksemalar kiyim-kechak, narsa-buyum otlari bo'lib, zoonimlar, tana a'zolari nomlarida ham ishtirok etgan. Narsa-buyum otlari "qamrab olish", "ichi bo'sh", "ustma-ust qo'yish", "buyum" semantik uzvlari orqali birlashadi. Qa= asosidagi ot leksemalar struktur-grammatik, tarixiy jihatdan muayyan o'zgarishlarga uchragan. Qa= asosli ot leksemalar barqaror birikmalar tarkibida kelib, axborot berishdan tashqari funksional-uslubiy vazifa bajaradi. Qa= asosli lug'aviy birliklar frazemalar tarkibida semantik mundarijasida semalarni ifoda etgan. Shu bilan bir qatorda so'z va tushuncha munosabatiga doir kognitiv-semantik xususiyatlarni namoyon qilgan. Qa= asosli lug'aviy birliklar maqol va matallar tarkibida kelib, umumiy didaktik mazmunni reallashtirishga xizmat qilgan.

Tilshunoslikning aniq fanlar, tabiiy fanlar bilan integratsiyasi bir qator metodlarning o'zbek tiliga tatbiq etilishiga omil bo'lmoqda. Hozirgacha amalga oshirilgan ishlarda semantik valentlik, semantik maydon tushunchalaridan til masalalarini tadqiq qilishda foydalanilmoqda. Semantik maydon tushunchalarni oson o'zlashtirishga, lisoniy ongda barqarorlashtirishga, mohiyatini anglashga xizmat qiladi. Semantika masalalarini tahlil qilishda integratsiya asosidagi tahlil metodlaridan biri bo'lgan "semantik to'r" metodi tatbiq etilmoqda. Semantik to'r leksemalar o'rtasidagi aloqadorlik uzvlarini, zanjirlarini aniqlashga yordam beradi.

"Semantik to'r" tushunchasi XX asrning ikkinchi yarimlarida keng qo'llana boshlagan tushuncha bo'lib, bilimlarni tarmoqlangan grafik shaklida ifodalashga asoslanadi. Semantik to'rlar aniq fanlarda ko'proq amal qiladi. Semantik to'rlar, ayniqsa, leksemalar o'rtasidagi semantik munosabatlarni, mazmuniy aloqadorlikni yoritishda

ham qulay imkoniyatlar yaratadi. Semantik to'r ta'riflash, izohlash, aniqlash maqsadida qo'llanadi.

Barqaror birikmalar har bir tilning o'ziga xos murakkab birliklari hisoblanib, tilning tasviriylik, ta'sirchanlik xususiyatlari, to'plash funksiyasini o'zida aks ettiradi. Frazemalar barqaror birikmalar sifatida ikki yoki undan ortiq so'zlarning shakliy, ma'noviy birikishiga asoslangan semantik to'rlar hisoblanadi. Yaxlit bir umumiy ko'chma ma'no bir komponent atrofida jamlanadi va ma'no aloqadorligi mantiqiy to'r ko'rinishida shakllanadi. Maqollar mazmuni ham semantik to'rlarga asoslanadi. Maqollar uzvi o'rtasidagi aloqadorlik ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan, anglangan, turmush tajribasida o'z isbotini topgan mazmundir.

Adabiyotlar

- Abdushukurov, B. (2019). Qadimgi turkiy til. – Toshkent.
- Xolmanova, Z. (2022). Semantik maydon va semantik to'r imkoniyatlari. "Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim va istiqbollar" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – Toshkent.
- Каиржанов, А.К. (2013). Древнетюркские памятники письменности: открытия и исследования // Введение в тюркологию. – Астана: ЕНУ им. Л.Н.Гумилева.
- Ҳожиёв, А. (2002). Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент.
- Этимологический словарь тюркских языков. (2013). Том 9 (дополнительный). Этимологический словарь базисной лексики тюркских языков / Составитель Дыбо А.В. – Астана: Prosper Print.

Semantic web-based analysis of qa= based linguistic units

Kamola Rixsiyeva¹

Abstract

In world and Uzbek linguistics, the issues of semantics have been deeply studied. The analysis of lexemes in semantic restrictions was carried out on the basis of the semantic field. When dividing a word into semantic

¹ Kamola Rikhsiyeva – a senior lecturer at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, PhD.

E-mail: krikhsiyeva85@mail.ru

ORCID-ID: 0000-0001-6965-3067.

For reference: Rikhsiyeva K. Semantic web-based analysis of qa= based linguistic units. *Uzbekistan: language and culture. Linguistics*. 2024-2: 19-27.

fields, it is initially approached based on the "concept field". According to this approach, each word belongs to a certain "group of concepts", that is, a semantic field, and none of them remains in an intermediate position. The historical development of the meaning of the word is interpreted as the re-partitioning of an immutably structured field. Therefore, the belonging of the word to the semantic field has a synchronic character, and periods can undergo significant changes. The article examines the analysis of units based on qa= on the basis of a semantic network, changes in meaning in historical development.

Key words: *meaning, sema, semantics, semantic field, semantic network, concept, genesis, etymology.*

References

- Abdushukurov, B. (2019). Ancient Turkic language. – Tashkent.
- Kholmanova, Z. (2022). Possibilities of semantic field and semantic network. International Scientific and Practical Conference on "Computer Linguistics: Problems, Solutions and Prospects". – Tashkent.
- Kairjanov, A.K. (2013). Drevnetyurkskie pamyatniki pismennosti: otkrytiya i issledovaniya // Vvedenie v tyurkologiyu. – Astana: ENU im. L. N. Gumileva.
- Hojiev, A. (2002). Annotated Glossary of Linguistic Terms. – Tashkent.
- Etymological dictionary of Turkish language. (2013). Volume 9 (additional). Etymologicheskij slovar bazisnoy lexiki turkskih yazykov / Composer Dybo A.V. – Astana: Prosper Print.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

O'zbekiston: til va madaniyat (O'zTM) – zamonaviy O'zbekiston (sobiq Turkiston) bilan bog'liq bevosita Markaziy Osiyo mintaqasini birlashtiradigan til, tarix, san'at, etnografiya, madaniyat va ijtimoiy fanlar sohalarini qamrab olgan ilmiy jurnaldir. O'zTM munozarali, zamonaviy, innovatsion, konseptual jihatdan qiziqarli, original mavzudagi ilmiy tadqiqotlarni nashr qiladi. Jurnal lingvistika, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, din, falsafa, ilohiyot, fan, ta'lim, metodika, sotsiologiya, psixologiya, tarix, madaniyat, san'at, etnologiya, etnografiya, antropologiyaga oid ilmiy yo'nalishdagi maqolalar va taqrizlar hamda konferensiya hisobotlarini qabul qiladi.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo'lyozmalar o'zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, boshqa turkiy tillarda ham qabul qilinadi. Agar muallif o'z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr ettirmoqchi bo'lsa, unda qo'lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etilishi lozim.

Qo'lyozmalar MS Word (.doc) formatida (uzlangcult@gmail.com) elektron pochtasiga yuboriladi. Iqtiboslar va izohlar uchun MS Word menejerini qo'llash mumkin.

Barcha qo'lyozmalar tahririyatga muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma'lumot bilan taqdim etiladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig'i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo'lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantiriladi. Maqola matni 3 000–5 000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

O'zbek va ingliz tillarida 100–150 so'zdan iborat abstrakt (Abstrakt) va 5–10 so'zdan kam bo'lmagan kalit so'zlar (o'zbek va ingliz tillarida). Abstraktda maqolaning qisqacha mazmuni va dolzarbligi, tadqiqot natijalari aks etishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati 5 sahifadan oshmasligi kerak.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo'lishi mumkin) 1500 so'zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so'ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo'limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to'q bo'yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o'zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tilda yozilgan bo'lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – to'q bo'yoqda, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satr boshidan, boshqa barcha qatorlari xatboshidan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

V.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:

[Xondamir, Makorim, 17^a]

VII.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Qudratullayev, Hasan. 2018. *Boburning adabiy-estetik olami*. Toshkent: Ma'naviyat.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Qudratullayev 2018, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011 (a), 99]

[Sirojiddinov 2011 (b), 67]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Abdurahmonov, G'anijon, Alibek Rustamov. 1984. *Navoiy tilining grammatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdurahmonov, Rustamov 1984, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Abdug'afurov, Abdurashid. 2016. "Badoye' ul-bidoya"ning tuzilish sanasi". *XX asr o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi*, Olim To'laboyev muharrirligida, 174–184. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdug'afurov 2016, 176]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Mamatov, Ulug'bek. 2018. *O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari*. Toshkent: Mumtoz so'z. <https://kitobxon.com/uz/catalog/sanat/>. 12.03.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mamatov 2018, 11]

Ikki mualliftomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2017, 19-hujjat]

VII.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Mahmudov, Nizomiddin. 2013. "Termin, badiiy so'z va metafora". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 3 – 8.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mahmudov, 2013, 5]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Aminov, Hasan. 2018. "O'zbekiston san'atida temuriylar siymosi". *O'zbekistonda xorijiy tillar* 2: 246 – 253. doi: 10.36078/1596780051.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Aminov 2018, 248]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi

“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro‘yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo‘yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo‘lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko‘rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi. Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. “Jomiy “Xamsa” yozganmi?.” *O‘zbekiston adabiyoti va san’ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Jabborov, Rustam. 2019. “Navoiyning Tabrizda yashagan xorazmlik kotibi”. *UZA: O‘zbekiston Milliy axborot agentligi*, 08.12. <https://uza.uz/uz>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Jabborov 2010, 17]

Maqola so‘ngida foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxati ikki qismdan iborat bo‘lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko‘rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini “*The Chicago Manual of Style, 16th Edition*” qo‘llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko‘rib olishingiz mumkin.

GUIDELINES FOR CONTRIBUTORS

Uzbekistan: Language and Culture is an academic journal, publishing research in linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies. We aim to publish cutting edge, innovative, conceptually interesting, original case studies and new research, which shape and lead debates in multifaceted studies. We do not publish economic analyses or policy papers. Any

opinions and views expressed in publications are the opinions and views of the authors, and the publishers are not responsible for the views/ reviews of the contributors.

The journal is published four times a year. The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcomed. In addition to research articles, the journal welcomes book reviews, literature overviews, conference reports and research project announcements.

1. General

- Submission Guideline

1. Manuscripts may be submitted at any time during the year. However, if the author wishes to have his/her manuscript published in a certain issue of the journal, the submission should be made at least five months in advance of the proposed publication date.

2) Manuscripts should be submitted by email (uzlangcult@gmail.com) as an attachment in MS Word document (.doc) format and use MS Word Source.

3) All manuscripts should be submitted with a cover page including an email address, a mailing address and a short introduction about the author(s) /contributor(s)'.

2. Manuscript format

1) The main texts should be written in Times New Roman font, 12 point, and single-spaced in 44 pagination with 1-inch margins.

2) Submissions must follow the author-date system of The Chicago Manual of Style, 16th Edition.

3) Quotations are given in brackets in the text.

4) A research article should normally be no more than 9,000 words in length, including the following contents:

- an abstract of 150-200 words (in English, Russian, and Uzbek) and seven to ten keywords;

- a list of references of no more than five (5) pages;

- tables and figures, if any.

5) A book review should generally be about 1,500 English words (or other languages) in length, and must include the heading and closing in the following format:

- Heading: Title of the Book. By Author's Name(s). City of Publication: Publisher Name, Year. pp. Price, ISBN:, (hardcover/paperback).

- Closing: Book reviewer's name, affiliation and postal address at the end.

6) Style Points Headings. Limit: Four levels.

Level 1. Title Style (e.g. the first letter of each word upper case, except prepositions), Bold, and 14 point.

Level 2. Title Style, Italics, 14 Point.

Level 3. Modified "down" style (first letter upper case, or first letter of first two words if the first word is an article), Bold, and 12 point.

Level 4. Modified down style, Bold, 11 point.

3. Style and Usage

1) Translation

- Translated excerpts from classical texts or non-English sources should be annotated with clarification of its original/published language and translator. Likewise, "Author's own" translations of quoted texts should be noted as such.

- The author is expected to provide an English translation of key terms in the work, rather than a translator without expertise in the subject.

- Excerpts or quoted texts from published translation will not be edited. However, UzLC editors may query or modify translations of key terms or texts provided by the author.

- Where necessary, short supplementary information such as dates, an item in its original characters, or the Romanized form of a non-English item, may be included.

- Names of foreign publishers, and titles of sources published in a foreign language should primarily appear in Romanized form without translation. However, if necessary, a translation may be added in brackets ([]).

2) Names and Terms

- Place Names (foreign):

Designation for division of areas should be either translated or hyphenated after the given area name.

Designation for geographical/structure names are not hyphenated, and appear without the equivalent English term.

Institutional names are considered proper nouns. Their names should appear following the preference of the individual institutions.

3) The descriptive designation of a period is usually lowercase, except for proper names or traditionally capitalized terms.

4. Quotation

1) Block Quotations:

- A block quotation should start with double line spacing and an indentation from the left margin. From the second paragraph of the block quotation, additional paragraph indentation is needed.

Texts in block quotation should be written in Times New Roman 10 pts., and not be entirely italicized.

5. Others

1) There is one space after sentence punctuation and not two.

2) The end parenthesis, closing quotation mark, and footnote numbers come after the sentence punctuation.

3) For parentheses within parentheses, use brackets ([]).

6. Basic Citation Format

The following examples illustrate citations using the **author-date** system. Each example of a reference list entry is accompanied by an example of a corresponding parenthetical citation in the text. For more details and many more examples, see chapter 15 of *The Chicago Manual of Style*.

BOOK

Reference List (hanging indent):

Pollan, Michael. 2006. *The Omnivore's Dilemma: A Natural History of How Eating Has Evolved*. New York: Penguin.

In Text Cite:

[Pollan 2006, 99–100]

Reference List (hanging indent):

Ward, Geoffrey C., and Ken Burns. 2007. *The War: An Intimate History, 1941–1945*. New York: Knopf.

In Text Cite:

[Ward and Burns 2007, 52]

For four or more authors, list all of the authors in the reference list; in the text, list only the first author, followed by et al. (“and others”):

[Barnes et al. 2010, 847]

Reference List (hanging indent) book chapter:

Kelly, John D. 2010. “Seeing Red: Mao Fetishism, Pax Americana, and the Moral Economy of War.” In *Anthropology and Global Counterinsurgency*, edited by John D. Kelly, Beatrice Jauregui, Sean T. Mitchell, and Jeremy Walton, 67–83. Chicago: University of Chicago Press.

In Text Cite:

[Kelly 2010, 77]

Chapter of an edited volume originally published elsewhere (as in primary sources):

Reference List (hanging indent) book originally published elsewhere:

Cicero, Quintus Tullius. 1986. “Handbook on Canvassing for the Consulship.” In *Rome: Late Republic and Principate*, edited by Walter Emil Kaegi Jr. and Peter White. Vol. 2 of University of Chicago Readings in Western Civilization, edited by John Boyer and Julius Kirshner, 33–46. Chicago: University of Chicago Press. Originally published in Evelyn S. Shuckburgh, trans., *The Letters of Cicero*, vol. 1 (London: George Bell & Sons, 1908).

In Text Cite:

[Cicero 1986, 35]

BOOK PUBLISHED ELECTRONICALLY

If a book is available in more than one format, cite the version you consulted. For books consulted online, list a URL; include an access date only if one is required by your discipline. If no fixed page numbers are available, you can include a section title or a chapter or other number.

Reference List (hanging indent):

Austen, Jane. 2007. *Pride and Prejudice: A Novel in Five Books*. New York: Penguin Classics. Kindle edition.

In Text Cite:

[Austen 2007, 101]

Reference List (hanging indent):

Kurland, Philip B., and Ralph Lerner, eds. 1987. *The Founders' Constitution*.

Chicago: University of Chicago Press. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders>

In Text Cite:

[Kurland and Lerner, chap. 10, doc. 19]

JOURNAL ARTICLE
Article in a print journal

In the text, list the specific page numbers consulted, if any. In the reference list entry, list the page range for the whole article.

Reference List (hanging indent):

Weinstein, Joshua I. 2009. "The Market in Plato's Republic." *Classical Philology* 104:439–58.

In text cite:

[Weinstein 2009, 440]

Article in an online journal

Include a DOI if the journal lists one. A DOI is a permanent ID that, when appended to <http://dx.doi.org/> in the address bar of an Internet browser, will lead to the source. If no DOI is available, list a URL. Include an access date only if one is required by your discipline.

Reference List (hanging indent):

Kossinets, Gueorgi, and Duncan J. Watts. 2009. "Origins of Homophily in an Evolving Social Network." *American Journal of Sociology* 115:405–50. doi:10.1086/599247.

In text cite:

[Kossinets and Watts 2009, 411]

Article in a newspaper or popular magazine

Newspaper and magazine articles may be cited in running text ("As Sheryl Stolberg and Robert Pear noted in a New York Times article on February 27, 2010..."); they are commonly omitted from a reference list. The following examples show more formal versions of the citations. If you consulted the article online, include a URL; include an access date only if your discipline requires one. If no author is identified, begin the citation with the article title.

Reference List (hanging indent):

Mendelsohn, Daniel. 2010. "But Enough about Me." *New Yorker*, January 25.

In text cite:

[Mendelsohn 2010, 68]

Reference List (hanging indent):

Stolberg, Sheryl Gay, and Robert Pear. 2010. "Wary Centrists Posing Challenge in Health Care Vote." *New York Times*, February 27. <http://www.nytimes.com/2010/02/28/us/politics/28health.html>.

In text cite:

[Stolberg and Pear 2010, 12]

WEBSITE

A citation to website content can often be limited to a mention in the text (“As of July 19, 2008, the McDonald’s Corporation listed on its website . . .”). If a more formal citation is desired, it may be cited as in the examples below. Because such content is subject to change, include an access date or, if available, a date that the site was last modified. In the absence of a date of publication, use the access date or last-modified date as the basis of the citation.

Bibliography (hanging indent):

Google. 2009. “Google Privacy Policy.” Last modified March 11. <http://www.google.com/intl/en/privacypolicy.html>.

In text cite:

[Google 2009]

Reference List (hanging indent):

McDonald’s Corporation. 2008. “McDonald’s Happy Meal Toy Safety Facts.” <http://www.mcdonalds.com/corp/about/factsheets.html>.

In text cite:

[McDonald’s 2008]

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot
va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.
Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga
kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos
Hojib ko'chasi 103-uy.
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.
Website: www.linguistics.tsuul.uz
E-mail: linguistics@navoiy-uni.uz
linguistics1navoiy@gmail.ru

Bosishga 25.03.2024-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. "Cambria" garniturasi.
Nashr b.t. 10,25.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida
tayyorlandi va sahifalandi.
"YASHNOBOD NASHR" bosmaxonasida chop etildi.
Adadi 300 nusxa. Buyurtma №54
Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,
58-a harbiy shaharcha.